

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY JIHATLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrası

o'qituvchisi, leytenant **Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning huquqiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi hamda boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish jarayonining bosqichlari, tashabbus bilan chiqish, loyihalashtirish, yer munosabatlari ishtirokchilari bilan kelishuvga erishish, davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish va yakuniy qaror qabul qilish jarayonlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, davlat ekologik siyosati, ekologik ekspertiza, biologik xilma-xillikni saqlash, ekologik boshqaruv, yer munosabatlari, ekologik qonunchilik, davlat boshqaruvi organlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlik.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ko'p sonli muammolar haqida so'z borganda, avvalambor, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishni qayd etish lozim. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning munosib himoya qilinishini ta'minlash uchun ushbu munosabatlarda davlatning doimiy va aniq yo'naltirilgan ta'siri bo'lishi lozim. Davlat boshqaruvi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni maqsadga muvofiq va oqilona himoya qilishga oid ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvining asosiy vazifasi ma'muriy va huquqiy choralar tizimi yordamida uning munosib himoyasini tashkil etishdan iborat. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlatning ekologik funksiyasi mazmunini tashkil etadi. Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni davlatning mustaqil hamda asosiy

vazifasi sifatida tan olish masalasiga ko‘p e‘tibor qaratilgan. Olimlarning fikricha, ijtimoiy hayotning ushbu sohasi o‘z tashkilotlariga va institutlariga ega bo‘lganligi hamda o‘ziga xos munosabatlar va psixologik holatlar bilan tavsiflanganligi bois ushbu vazifa asosiy va mustaqil vazifa sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, davlatning ekologik vazifasining mustaqil asosiy vazifa sifatida ajralib turishi “jamiyatning tabiatga nisbatan yondashuvi o‘zgarganligi” bilan ham tasdiqlanadi. Shunday ekan, ekologik vazifani davlat faoliyatining ekologiya sohasidagi mustaqil vazifasi hamda Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq ko‘p sonli muammolar haqida so‘z borganda, avvalambor, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishni qayd etish lozim. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning munosib himoya qilinishini ta‘minlash uchun ushbu munosabatlarda davlatning doimiy va aniq yo‘naltirilgan ta‘siri bo‘lishi lozim. Davlat boshqaruvi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni maqsadga muvofiq va oqilona himoya qilishga oid ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvining asosiy vazifasi ma‘muriy va huquqiy choralar tizimi yordamida uning munosib himoyasini tashkil etishdan iborat.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlatning ekologik funksiyasi mazmunini tashkil etadi. Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni davlatning mustaqil hamda asosiy vazifasi sifatida tan olish masalasiga ko‘p e‘tibor qaratilgan. Olimlarning fikricha, ijtimoiy hayotning ushbu sohasi o‘z tashkilotlariga va institutlariga ega bo‘lganligi hamda o‘ziga xos munosabatlar va psixologik holatlar bilan tavsiflanganligi bois ushbu vazifa asosiy va mustaqil vazifa sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, davlatning ekologik vazifasining mustaqil asosiy vazifa sifatida ajralib turishi “jamiyatning tabiatga nisbatan yondashuvi o‘zgarganligi” bilan ham tasdiqlanadi. Shunday ekan, ekologik vazifani davlat faoliyatining ekologiya sohasidagi mustaqil vazifasi hamda SH.X.Fayziyev har qanday davlatning ekologik siyosati atrof tabiiy muhit sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati bilan chambarchas bog‘liqligini hamda ekologik siyosat ekologiya sog‘asidagi davlat boshqaruvi va nazoratining tizimli ifodasi ekanligini qayd etadi.

Ko'pchilik olimlar boshqaruv deganda, ma'lum bir doiradagi davlat faoliyatini tushunadilar. Ammo bu faoliyat cheklangan bo'lib, u subyektlar o'zlarini qanday tutishlari lozimligining umumiy qoidalarinigina belgilab beradi, ammo xo'jalik yurituvchi tizimni tashkil etish masalalari bilan shug'ullanmaydi. Shu ma'noda M.M.Brinchuk tomonidan "boshqaruv" tushunchasiga berilgan ta'rif boshqaruvning bugungi mohiyatini to'la ochib beradi. YA'ni, "tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv vakolatli subyektlarni ekologik qonunchilik talablarini ijro etishga qaratilgan faoliyati yig'indisidan iborat". J.T.Xolmo'minov, M.M.Fayziyev, Y.G.Bezborodovlar ta'kidlaganidek, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi davlat ekologik funksiyasining tarkibiy qismini tashkil etadi. M.K.Najimov bu haqda "boshqaruv o'zaro jips bog'liqlikda bo'lgan elementlardan (unsurlardan) tashkil topgan ma'lum bir jarayondir. Aytish mumkinki, bu boshqaruvning umumiy, tashkiliy-iqtisodiy tavsifidir", deb yozadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi ekologiya huquqining eng muhim, asosiy va ayni damda murakkab institutlaridan hisoblanadi, binobarin, u o'z ichiga bir necha institutlarni ham qamrab oladi. Ushbu institut ekologik kadastrni yuritish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda davlat nazoratini amalga oshirish, ushbu o'ziga xos hududlar bilan bog'liq nizolarni hal qilish va shunga o'xshash boshqa institutlardan tarkib topgan. Ushbu munosabatlar sohasida davlat boshqaruvi instituti, uning mazmunini tashkil etuvchi subinstitutlar davlatning boshqaruv funksiyasini amalga oshirishning usul va vositalari hisoblanadi hamda bevosita ekologiya huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Jumladan, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun ushbu munosabatlar sohasidagi davlat boshqaruv organlari vakolatlarini belgilab beradi: 14-modda – davlat kadastrini yuritish, 19-modda – davlat nazoratiga oid qoidalarni aks ettiradi. Shu bois, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasidagi davlat boshqaruvi ekologiya huquqining mustaqil instituti, deya ta'kidlashimiz uchun yetarli asoslar mavjud, deb o'ylaymiz. Ekologiya huquqi normalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi mazmuni, funksiyalari, shakli va usullarini belgilab beradi. Davlat boshqaruvini amalga oshirish

jarayonida yuzaga keluvchi huquiy munosabatlar ekologik-huquqiy munosabatlar tizimiga kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi o‘zida tegishli davlat organlarining tashkiliy, ijro-farmoyish beruvchi hamda ushbu sohada huquqiy tartibotni saqlashga qaratilgan faoliyatini ifodalaydi. “Qo‘riqxona fondini muhofaza qilish” tushunchasi tabiatni muhofaza qilish borasidagi davlat siyosati maqsad va vazifalariga mutanosib bo‘lgan, ekologiya huquqi norma va tamoyillarida mustahkamlangan ekologik munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining farmoyish beruvchi vakolatlari, shuningdek, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi vakolatlari uning yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy tushadigan ko‘rsatma (vazifa)lar berish huquqidan kelib chiqadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining ijro va farmoyish berish faoliyati “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonun talablari ijrosini ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Shunga asosan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining ijroiya faoliyati qonunchilik hujjatlarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha amaliy xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda davlat boshqaruvi organlari ijtimoiy munosabatlar subyektlariga ta‘sir etish usullaridan iborat bo‘lgan boshqaruv uslublaridan foydalanadilar. Ruxsat berish, taqiqlash, rozilik berish, majburiy ko‘rsatma berish ushbu uslublar sirasiga mansubdir. Davlat boshqaruvining ruxsat beruvchi usuli asosan davlat qo‘riqxonalarini tashkil etishda keng qo‘llanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish faqatgina vakolatli davlat boshqaruv organi ruxsatnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Ruxsat beruvchi (sanksiyalovchi) usul deganda davlat organlarining tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan tayyorlangan norma, qoida va tartib (maqom)larni tasdiqlashi va ruxsat berishi tushuniladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining

taqiqlovchi usuli atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni tashkil etishda keng qo'llanib, joylarda muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishni taqiqlashda namoyon bo'ladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar. Ushbu vakolatlar quyidagilardan iborat: muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, atrof tabiiy muhit himoyasini ta'minlovchi normalarni o'rnatish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat hisobini va davlat kadastrini yuritish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishni rejalashtirish; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni himoya qilish bo'yicha nazoratni amalga oshirish; nizolarni hal etish.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi mohiyati biz yuqorida taklif etgan tushunchada ifodalangan faoliyatni amalga oshirish uchun qo'llanadigan vositalarni tatbiq etishni jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Barchamizga ayonki, davlat boshqaruvining asosiy mazmunini uni hayotga tatbiq etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, qo'llash va ular talablariga rioya etilishini ta'minlash tashkil qiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvining birinchi shakli normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, qo'llash va bajarilishini ta'minlashdan iborat. Ushbu usul umumdavlat vakolatlariga ega bo'lgan davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Oliy Majlis, Prezident va Vazirlar Mahkamasi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, qo'llash va bajarilishini ta'minlash orqali umumdavlat boshqaruvini amalga oshiradilar.

Davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishni tartibga solish davlat organlarining qonunchilik faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy holatini belgilab beradi. Davlat hokimiyati va ijroiya organlari tomonidan qabul qilinadigan qonun, qaror, farmon va boshqa normativ ahamiyatdagi

hujjatlar barcha vazirlik, davlat qo‘mtalari, muassasalar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Ekologik qonunchilikda mustahkamlangan qoidalarni hayotda tatbiq etish davlat ijroiya hokimiyati organlarining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Qonunchilik hujjatlari talablarining barcha vazirliklar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va tegishli choralarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organlarining faoliyati ijtimoiy adolatni ta‘minlashga va ishlab chiqarish subyektlari huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, nazarimizda, davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: 1) normativ-huquqiy hujjatlar yaratilishi, qo‘llanilishi va bajarilishini ta‘minlash (nazoratning ushbu shakliga qonun, qaror, farmon, farmoyish, dastur, shuningdek, normativlar, standartlar va sh.k.larni qabul qilish, tasdiqlash, qo‘llash va bajarilishi ta‘minlash kiradi); 2) monitoring xizmatini yuritish; 3) nazorat faoliyatini amalga oshirish (tekshirish, baholash, tahlil o‘tkazish, kadastr yuritish va hisobdorlik).

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi turli usullarda amalga oshiriladi. Ushbu usullarning har biri o‘z ichiga bir necha faoliyat turlarini qamrab olishi mumkin. Chunonchi, ekologik monitoringni yuritish, nafaqat kuzatish, balki tabiat holati to‘g‘risida ma‘lumotlar bazasi yaratishni ham ko‘zda tutadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish maqsadida davlat o‘zining maxsus vakolatli organlari orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqiy talablar bajarilishini nazorat qiladi. Davlat nazoratining ushbu shakli tabiiy obyektlar monitoringi-nazorati-ekspertizasining yagona tizimini joriy etishni taqozo etadi. Ushbu tizimda birinchi bo‘g‘in sifatida ekologik monitoring namoyon bo‘ladi.

Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhit monitoringining davlat boshqaruviga kiritish (taalluqligi) xususida yakdil fikr bildirilmagan. Jumladan, X.R.Isanovning yozishicha, “Ekologik monitoring ekologik ekspertiza, ekologik nazorat atrof tabiiy muhitni muhofaza

qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tizimida bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi yagona faoliyati turidir”.

M.M.Brinchuk ham atrof tabiiy muhit holati ustidan davlat kuzatuv xizmati davlat boshqaruvining mustaqil funksiyalaridan biri hisoblanadi, deb qayd etadi. V.V.Petrov ushbu masala yuzasidan “Milliy nuqtai nazardan monitoring keng ma’noda, ya’ni nafaqat atrof tabiiy muhit holati ustidan kuzatuv olib borish, balki tabiatni muhofaza qilish choralari bajarilishi hamda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish ustidan nazorat sifatida ham talqin etilishi lozim”, degan mulohazasini ilgari suradi. Shu yo‘sinda V.V.Petrovning dalil-isbotlariga tayanib, ekologik monitoringni davlat boshqaruvi tizimiga kiritish mumkin.

O‘z navbatida ekologik monitoringni davlat boshqaruvini amalga oshirish usuli sifatida baholashda nazarimizda quyidagi holatlarni asos qilib olish mumkin: Birinchidan, ekologik monitoring mazmunini atrof tabiiy muhit holati ustidan kuzatish yoki ma’lumot yig‘ishgina tashkil etmaydi. Atrof tabiiy muhit hoalti ekologik monitoringi mohiyat e’tibori bilan tabiatdagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash va salbiy jarayonlarni bartaraf etishga, tabiat obyektlari sifatini ta’minlashga qaratilgan tadbir hisoblanadi. Shunday qilib, ekologik monitoring davlat boshqaruvining asosiy obyekti bo‘lmish tabiiy resurslar sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi boshqaruv usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining **“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni.**
2. O‘zbekiston Respublikasining **“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni.**
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq qarorlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi materiallari va rasmiy hujjatlari.

5. Yevropa davlatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyatiga oid xalqaro tajribalar va ilmiy manbalar.
6. Ekologik huquq va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid ilmiy maqolalar va monografiyalar.